



SUG'URTA BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT VA
AVTOMATLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
SUG'URTA TO'LOVLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yakubov Toxir Yusufdjanovich

mustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0009-0001-2390-1480>

e-mail: tokhir.yakubov@mail.ru

Annotatsiya. Tezisda sug'urta bozorida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan texnologiyalar asosida sug'urta to'lovlari takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan. Xorijiy tajriba asosida murojaatlarni avtomatik saralash, zararni masofadan baholash va to'lovlarni tezlashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sug'urta to'lovlari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, InsurTech, zararlarni baholash, raqamli sug'urta, sug'urta bozori.

Sug'urta bozorida to'lovlarning tezkor, aniq va shaffof amalga oshirilishi sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish hamda sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Biroq hujjatlarni qo'lda tekshirish, zarar miqdorini baholashning ko'p bosqichliligi va to'lov bo'yicha qaror qabul qilish muddatining uzayishi mazkur jarayon samaradorligini cheklaydi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan texnologiyalar sug'urta hodisasi haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, zararlarni baholash, firibgarlik alomatlarini aniqlash hamda standart to'lovlarni avtomatik amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli ushbu texnologiyalarni sug'urta to'lovlari tizimiga joriy etish to'lov muddatini qisqartirish, operatsion xarajatlarni



kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

E. Owens va hammualliflar sug'urta sohasida tushuntiriladigan sun'iy intellektdan foydalanishni o'rgangan. Mualliflar sug'urta to'lovlari bo'yicha avtomatik qarorlar mijoz va mutaxassis uchun tushunarli bo'lishi, ayniqsa murojaatni rad etish yoki qo'shimcha tekshiruvga yuborishda algoritm xulosasi izohlanishi lozimligini ta'kidlagan [1].

A. du Preez va hammualliflar tibbiy sug'urta to'lovlarida firibgarlikni aniqlashga oid mashinali o'qitish usullarini tizimli tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt shubhali murojaatlarni saralash, asossiz to'lovlarni kamaytirish va qonuniy murojaatlarni tezroq ko'rib chiqishga xizmat qilishini ko'rsatgan [2].

P. Dong va Z. Quan sug'urta ma'lumotlarini qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan mashinali o'qitish – AutoML tizimini taklif etgan. Ushbu yondashuv ma'lumotlarni tayyorlash, model tanlash va parametrlarni sozlash jarayonlarini avtomatlashtirib, sug'urta to'lovlarini baholashda mutaxassis mehnati hamda vaqt sarfini kamaytirish imkonini beradi [3].

Xorijiy sug'urta bozorlarida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan texnologiyalar sug'urta murojaatlarini qabul qilishdan boshlab, zarar miqdorini baholash va to'lovni amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonlarda qo'llanilmoqda. Mazkur tajribalar sug'urta to'lovlarini tezlashtirish uchun barcha murojaatlarni bir xil tartibda ko'rib chiqish emas, balki ularni murakkablik va risk darajasiga qarab saralash samarali ekanini ko'rsatadi.

AQShning Lemonade sug'urta kompaniyasida mijoz sug'urta hodisasi haqidagi ma'lumot va hujjatlarni mobil ilova orqali taqdim etadi. Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, belgilangan talablarga mos keluvchi oddiy murojaatlar sun'iy intellekt tomonidan avtomatik tasdiqlanib, ayrim to'lovlar bir necha soniyada amalga oshiriladi. Qo'shimcha tekshiruvni talab qiluvchi murakkab murojaatlar esa mutaxassisga yo'naltiriladi. Ushbu amaliyot tezkor avtomatik



to'lov bilan inson nazoratini o'zaro uyg'unlashtiruvchi gibrid modelning samaradorligini ko'rsatadi.

Ispaniyaning Admiral Seguros kompaniyasi transport vositalariga yetkazilgan zararni fotosuratlar asosida baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalangan. Tractable ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda mazkur tizim orqali 12 mingta murojaat inson baholovchisining bevosita ishtirokisiz qayta ishlangan, zarar hisob-kitoblarining 90 foizi avtomatlashtirilgan va murojaatlarning 98 foizi 15 daqiqadan kam vaqt ichida yakunlangan [4]. Bu kompyuter ko'rishi texnologiyalaridan foydalanish transport sug'urtasida ko'rik va zarar baholash muddatlarini keskin qisqartirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yaponiya tajribasida sun'iy intellekt nafaqat to'lovlarni tezlashtirish, balki ta'mirlash xarajatlarining asoslanganligini nazorat qilish vositasi sifatida ham qo'llanilmoqda. Sompo Holdings tizimida sun'iy intellekt shikastlangan transport vositalari tasvirlari va ta'mirlash smetalarini tekshiradi, faqat shubhali yoki murakkab holatlarni mutaxassisga yuboradi. Kompaniya ma'lumotiga ko'ra, tizim oyiga qariyb 50 mingta tasvirli tekshiruvni amalga oshirgan. Ushbu yondashuv mutaxassislarning takroriy operatsiyalarga sarflanadigan vaqtini kamaytirib, ularni yuqori riskli holatlarga yo'naltirish imkonini beradi [5].

Yevropa sug'urta bozorida esa sun'iy intellektni joriy etish bilan bir qatorda, algoritmik qarorlarning adolatlilik va tushuntirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. EIOPA ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda umumiy sug'urta kompaniyalarining 50 foizi va hayot sug'urtasi kompaniyalarining 24 foizi faoliyatining turli yo'nalishlarida sun'iy intellektdan foydalangan. Yevropa yondashuvida to'lovni rad etish, uning miqdorini kamaytirish yoki murojaatni qo'shimcha tekshiruvga yuborish kabi qarorlar inson tomonidan nazorat qilinishi va mijozga tushuntirilishi lozimligi ta'kidlanadi [6].

Xorijiy tajriba sug'urta to'lovlarini takomillashtirishda uchta asosiy yo'nalishni ajratish imkonini beradi. Birinchisi, mobil ilova va elektron



murojaatlar orqali sug'urta hodisasi haqidagi ma'lumotlarni tezkor qabul qilishdir. Ikkinchisi, OCR, kompyuter ko'rishi va mashinali o'qitish yordamida hujjatlar, zarar tasvirlari hamda firibgarlik alomatlarini avtomatik tekshirishdir. Uchinchisi, past riskli murojaatlarni avtomatik to'lash, murakkab va katta miqdordagi holatlarni esa mutaxassis nazoratida ko'rib chiqishdan iborat.

Mazkur tajribalarni O'zbekiston sug'urta bozorida qo'llashda dastlab transport va mol-mulk sug'urtasidagi standart, kichik miqdordagi to'lovlarni avtomatlashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun sug'urta hodisasi haqida mobil ilova orqali xabar berish, fotosuratlarini yuklash, hujjatlarni avtomatik o'qish, murojaatlarni risk darajasiga qarab saralash va tasdiqlangan mablag'larni bank hisobvarag'iga tezkor o'tkazish imkonini beruvchi yagona raqamli tizimni shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy sug'urta bozori, mavjud axborot infratuzilmasi va ma'lumotlar sifati bilan muvofiqlashtirish talab etiladi. Sun'iy intellektdan foydalanish to'lovlarni avtomatik rad etish vositasiga aylanmasligi, algoritmik xulosalar tekshirilishi hamda sug'urtalanuvchiga qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati berilishi lozim. Shunda avtomatlashtirish to'lov muddatini qisqartirish bilan birga, qarorlarning asoslanganligi va sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoyasini ham ta'minlaydi.

Xorijiy tajriba sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan texnologiyalar sug'urta murojaatlarini tezkor saralash, zararni masofadan baholash va standart to'lovlarni avtomatik amalga oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. O'zbekiston sug'urta bozorida ham past riskli murojaatlarni avtomatlashtirish, murakkab holatlarda esa mutaxassis nazoratini saqlashga asoslangan gibridd tizimni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu to'lov muddatlarini qisqartirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.





FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Owens E., Sheehan B., Mullins M., Cunneen M., Ressel J., Castignani G. Explainable Artificial Intelligence (XAI) in Insurance // Risks. – 2022. – Vol. 10, No. 12. – Art. 230. – DOI: 10.3390/risks10120230.
2. Du Preez A., Bhattacharya S., Beling P., Bowen E. Fraud Detection in Healthcare Claims Using Machine Learning: A Systematic Review // Artificial Intelligence in Medicine. – 2025. – Vol. 160. – Art. 103061. – DOI: 10.1016/j.artmed.2024.103061.
3. Dong P., Quan Z. Automated Machine Learning in Insurance // Insurance: Mathematics and Economics. – 2025. – Vol. 120. – P. 17–41. – DOI: 10.1016/j.insmatheco.2024.10.002.
4. Tractable. Admiral Seguros: Tractable Delivers Outstanding Customer Services Through Touchless Claims [Elektron resurs]. – URL: <https://tractable.ai/case-studies/admiral-seguros>
5. Sompo Holdings, Inc. Products and Services Using Digital Technology [Elektron resurs]. – Tokyo: Sompo Holdings, Inc. – URL: <https://www.sompo-hd.com/en/csr/action/customer/content4/>.
6. European Insurance and Occupational Pensions Authority. From “Traditional AI” to “Generative AI”: Implications for the Insurance Sector [Elektron resurs] // Eurofi Magazine. – 2025. – 10 April. – URL: https://www.eiopa.europa.eu/publications/traditional-ai-generative-ai-implications-insurance-sector_en

